



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

USTRUSHONA O‘RTA ASRLAR TARIXIY TOPOGRAFIYASINI O‘RGANILISHIDA RUSTOQLARNING TUTGAN O‘RNI

Sharofov Sirojiddin

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, doktorant

Annotatsiya

Maqolada o‘lkamizning tarixiy-madaniy vohalaridan biri bo‘lgan Ustrushonaning o‘rta asrlar tarixiy topografiyasini o‘rganishda rustoqlarning tutgan o‘rni haqidagi tadqiqotchining fikr-mulohazalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Jizzax vohasi, Ustrushona, Dizak, Morguzar, Sug‘diyona, migratsiya, rustoq, al-Istaxriy, Bunjikat, Feknon, Shahriston, O‘ratepa, Choch.

РОЛЬ РУСТАКОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ ТОПОГРАФИИ УСТРУШОНЫ В СРЕДНИЕ ВЕКА

Шарофов Сирожиддин

Джизакский государственный педагогический университет имени А. Кадыри, докторант

Аннотация

В статье представлены взгляды исследователя на роль рустак в изучении исторической топографии Уструшоны — одного из историко-культурных регионов Средней Азии в средние века.

Ключевые слова: Средняя Азия, Джизакская долина, Уструшоно, Дизак, Моргузар, Согдиана, миграция, рустак, аль-Истахри, Бунджикат, Фекнон, Шахристан, Уратепа, Чач.

THE ROLE OF RUSTAQS IN THE STUDY OF THE HISTORICAL TOPOGRAPHY OF USTRUSHONA IN THE MIDDLE AGES

Sharofov Sirojiddin

Jizzakh State Pedagogical University named after A. Qodiriy, Doctoral Student

Abstract

The article presents the researcher's views on the role of rustaqs in the study of the historical topography of Ustrushona, one of the historical and cultural regions of Central Asia in the Middle Ages.

Keywords: Central Asia, Jizzakh oasis, Ustrushona, Dizak, Morguzar, Sogdiana, migration, rustaq, al-Istakhri, Bunjikat, Feknon, Shahristan, Uratyube, Chach.

Eng qadimgi zamonlardan yuksak sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lgan Vatanimiz osori-atiqalar, bebaho yodgorliklar, o‘lmas obidalar, tarixni olg‘a siljitgan o‘chmas kashfiyotlar va ixtirolar hamda ularning barchasini yaratishga iste‘dodi, qudrati hamda salohiyati yetuk komil insonlar yurtidir.

Shaxsning jamiyatda o‘z o‘rni va vazifalarini tushunib olishida, hayotiy mo‘ljallarini o‘zining maqsadi va ehtiyojlariga, imkoniyatlariga mos tarzda to‘g‘ri belgilashida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fani muhim o‘rin egallaydi [1:6]. Markaziy Osiyo mintaqasida sodir bo‘lgan tarixiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar, turli davrlarda xalq farovonligi va istiqbolini ko‘zlab amalga oshirilgan ko‘plab islohotlar, shuningdek, o‘shish va inqiroz holatlari, chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari o‘lkamizning serqirra va rang-barang tarixga ega

ekanligidan dalolat beradi.

Tariximiz eng qadimgi davrdan boshlab ko'p ming yillar mobaynida ajdodlarimiz va xalqimiz tarixi sifatida nafaqat o'zbekistonlik, balki xorij olimlari tomonidan ham tan olib o'rganildi, tadqiq etildi va ayni paytda ham shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda [2:25]. Darhaqiqat, shunday tadqiqotlarni izchil, uzviy ravishda davom ettirilishi kutilayotgan tarixiy o'lkalar qatoriga qadimgi Ustrushona ham kiradi. O'rta Osiyoning antik davri to'g'risida ma'lumot beruvchi ilk yozma manbalar bizgacha qadimgi yunon, rim mualliflari asarlari, shuningdek, Xitoy sulolaviy solnomalari va sayyohlarining kundalik yozishmalari orqali yetib kelgan. Biz tilga olayotgan Ustrushona qadimgi davrlardan Turonning taraqqiy etgan mintaqalaridan biri bo'lib, uning geografik joylashuvi, aholisi, undagi siyosiy jarayonlar, moddiy va madaniy hayot tafsilotlari, ilk o'rta asrlar xitoy va sug'd yozma manbalari hamda arab va fors tillaridagi tarixiy-geografik asarlarda ancha keng aks ettirilgan [3:7-8]. Darhaqiqat, O'rta Osiyoning qadimiy tarixiy hududlardan biri, bu shubhasiz Ustrushona viloyatidir. Yozma manbalarda Ustrushona hududi va uning atalishi bir qancha nomlarda qayd qilinadi. Tarixiy viloyat yozma manbalarda goh Sug'diyona, "So'g'd orti sak o'lkalari", keyinchalik "Ustrushona" nomida alohida ma'muriy hudud sifatida zikr qilingan o'lkaning katta qismi cho'l bo'lsada, u yerda rabotlar, karvonsaroylar, tog'oldi hududlarida esa o'rta asrlarda bir qator qo'rg'onlar, shahar va qishloqlar qad rostlagan. Viloyat shimolda Dashti Qipchoq, g'arbda Sug'diyona, sharqda Toshkent va Farg'ona, janubda Turkiston tog'lari bilan chegaradosh edi. Uning poytaxti Bunjikat shahri hukmdorning qarorgohi bo'lgan [4:91].

"Buyuk Ipak yo'li" bo'ylab dunyo kezgan arab geograf sayyohlari o'z esdaliklarida Ustrushona davlati, uning rustoqlari haqida ancha to'liq ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Manbalarda zikr qilinishicha, Ustrushona o'rta asrlarda ma'muriy tuzilish jihatidan 18 ta rustoqqa bo'lingan [5:168]. Mazkur rustoqlar tekislik, tog'lik va tog'oldi hududlarda joylashgan. Tarixiy viloyatning tekislik qismidagi rustoqlar – Sabat, Bunjikat, Zomin, Fag'non, Nujkat va Xarkana deb atalgan bo'lsa, uning tog'li hududidagi rustoqlar – Mink, Asbanikat, Biskar, Bangam, Vavr, Shagar, Mascha, Burgar va Buttam [6:77] deb nomlangan. Davlat poytaxti – Bunjikat Shahristonsoy daryo qirg'oqlarida, hozirgi paytdagi Shahriston qishlog'i hududlari o'rnida bo'lgan. Ushbu shahar O'rta Osiyoning katta shaharlaridan biri bo'lish bilan birga – iqtisodiyot, savdo va madaniyat markazi ham hisoblangan. Yozma manbalar guvohligiga qaraganda, shaharda 10 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan [7:43]. Bunjikat, Zomin, Fag'non, Xarakana, Sabat, Xovos, Shavkat va Nujkat tekislikda joylashgan rustoqlar bo'lib, har bir rustoqning ma'muriy markazi – bosh shahri mavjud bo'lgan. Ushbu rustoqlar mahalliy dehqonlar sulolasi tomonidan boshqarilgan.

Bunjikat shahri Ustrushonaning poytaxti bo'lganligi haqida yozma manbalarda zikr etiladi. Shaharning joylashgan o'rni masalasi tadqiqotchilar o'rtasida uzoq vaqt tortishuvlarga olib kelgan bo'lib, XIX asr boshlarida boshlangan bu bahslar natijasida ikki xil qarash paydo bo'lgan. V.V. Bartold, I. Kramer, A.A. Semyonov, A.Ye. Madji, B.G. Gafurovlarning fikricha, Bunjikat shahrining o'rni – Shahriston xarobalari; V. Tomashek, S. Bil, I. Kastanye, S. Ayniy, V. Cheylytko, Ye. Xortsfildlar tomonidan O'ratepadagi Mug'tepa shahristoni o'rni, degan taxminlar bildirilgan [8:101]. Biroq keyinchalik yuqoridagi tadqiqotchilar fikr-mulohazalarini davom ettirib, Qal'ai Qahqaha shahristonida o'tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasiga tayanib, N.N. Negmatov Bunjikatni Shahriston xarobalari ekanligini ta'kidlaydi [9:191-199]. Yana bir tadqiqotchi O.G. Bolshakov esa keyingi yillarda Bunjikatni Qal'ai Qahqaha shahristoniga joylashtirilishiga shubha bilan qarab, uni O'ratepa atrofida joylashganligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi [10:12]. Ta'kidlash lozimki, mashhur tadqiqotchi olim N.Negmatovning rustoqlar soni va nomlanishi masalasi bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari hozirgacha arxeologiya fanida o'zgarishsiz qabul qilingan. Ammo olimning rustoq va shaharlarning joylashish o'rni xususidagi fikr-mulohazalari keyingi yillarda olimlar o'rtasida ba'zi bir munozaralarga sabab bo'layotganligini ham unutmasligimiz lozim.

Ustrushonaning shimoliy-gʻarbiy sarhadlarida joylashgan Feknon (Fagʻnon) rustoqining tarixiy geografik hududi hozirgi maʼmuriy boʻlinishlar boʻyicha taxminan, ayni paytdagi Jizzax tumani va Jizzax shahri hududiga toʻgʻri keladi [5:168]. Vohadagi eng yirik (50 ga) va nisbatan izchilroq oʻrganilgan ushbu yodgorlik Qaliyatepada oʻtkazilgan qazuv tadqiqot ishlari natijalariga koʻra, tadqiqotchi A.E.Berdimurodov uni IV–XV asrlar bilan davrlashtirib, Dizak shahri oʻrnini mazkur yodgorlikka taqaydi [11:12].

Aytish joizki, Sangzorning quyi oqimida joylashgan kichik voha oʻzining geografik oʻrni va tabiiy iqlim sharoitining qulayligi, hududda Movarounnahrning gʻarbiy va sharqiy viloyatlarini bir-biri bilan bogʻlagan Ilonoʻtti darasi (Temir darvoza) joylashganligi tufayli bu yerda qadim va oʻrta asrlarda oʻziga xos, moʻjaz tarixiy madaniy oʻlka shakllanganligi arxeologik tadqiqotlar natijasida oʻz tasdigʻini topgan. Bizga maʼlumki, shimoliy-gʻarbiy Ustrushonada antik davrda barpo etilgan Qaliyatepa, Qoʻrgʻontepa shahar maskanlari, ilk oʻrta asrlarda bunyod etilgan Qingʻirtepa, Almantepa, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Yoqubbobote pa kabi qishloq makonlari, rivojlangan oʻrta asrlarda qad koʻtargan Oʻrda, Qizlartepa, Boʻztepa kabi turar-joy manzillari, Sarboztepa, Toʻrtkoʻltepa, Koʻk gumbaz kabi karvonsaroylar Jizzax vohasida kamida ilk antik davrdan buyon kishilar umrgozaronligi va faoliyati uzluksiz tarzda davom etganligidan dalolat beradi.

Nega deganda, tarixda oʻrta asrlar Oʻrta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy, etno-madaniy hayotida keskin va muhim oʻzgarishlar roʻy bergan davr sifatida yodga olinadi. Akademik A.Muhammadjonovning taʼkidlashicha, "...bu davrda shaharlarda aholining gavjumlashishi, hunarmandchilikning ravnaq topishi, ichki va tashqi savdoning kengayishi tufayli qishloq xoʻjalik mahsulotlariga ehtiyoj ham oshgan, ziroatkor mavzelar ham tobora ortib borgan. Natijada, qishloqlarning nufuzi koʻtarilib, bir tomondan, yerga, xususan ziroatkor maydonlarga egalik qilish udumlari oʻzgara boshlaydi" [12:8-9].

Oʻrta Osiyoda V–VIII asrlarda asosan, migratsiyalar natijasida aholi sonining keskin ortishi, shaharlarning gavjumlashishi va hududining kengayishi yangi qishloq makonlarining barpo etilishiga olib kelganligi kuzatiladi. Xususan, oʻrta asr tarixchi geografi al-Istahriyning maʼlumot berishicha, Buxoro vohasini oqar suv bilan taʼminlagan 12 shoh ariqdan uchtasining havzasida toʻrt ming qishloq makoni bunyod qilingan, Yaʼqubiy esa Ustrushona mamlakatida 400 ta qalʼa-rabot faoliyatda boʻlganligini yozib qoldirgan [13:225].

1950 yillarda Ustrushonaning Tojikiston Respublikasi qismida arxeologik tadqiqotlar oʻtkazgan O.I. Smirnova tarixiy viloyatning qadimgi aholisi koʻproq Shahriston, Oʻratepa, Oqtepa va Gʻonchi atrofida tarqalganligini [14:189-230], Ustrushonaning Oʻzbekiston qismida (Jizzax viloyati) tadqiqotlar olib borgan A.E.Berdimurodov esa 120 ga yaqin arxeologiya yodgorliklarini aniqlashga muvaffaq boʻladi. Tadqiqotchi olim yodgorliklarni 3 ta katta guruhga – shahar, qishloq makonlari va alohida joylashgan inshootlarga boʻlib oʻrganadi [11:8-9].

Ustrushona xalqlari siyosiy tuzumi masalasi viloyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining qanday boʻlganligi bilan ham bogʻliq. Uning siyosiy tuzilmasi va xoʻjaligi butun tarixi mobaynida shakllanib, mukammallik kasb etib borgan boʻlsada, asl xususiyat va mohiyatini saqlab qola olgan [6:75]. Hududning antik va ilk oʻrta asrlarda oʻtroq dehqonchilikka ixtisoslashgan vohalarida davlatchilik anʼanalari va shahar madaniyati jadal kechgan. Bu jarayonga vohaga kirib kelgan chorvadorlar ham sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Koʻhna turkiy afsonalarda aytilishicha, davlatchilikning markazi, hokimiyatni oʻz qoʻlida toʻplovchi shaxs xoqon hisoblangan. Hukmron sulola boshqaruvda asosiy rol oʻynab, u 3 ta kuch – osmon, yer-suvning kuch-irodasi va turk elining yaratuvchanlik faoliyati tufayli qaror topgan [15:196]. Boshqa bir tarixiy manbalarda keltirilishicha, Choch, Eloq, Ustrushona kabi Qangʻ konfederatsiyasi tarkibidagi koʻhna dehqonchilik vohalarida oʻtroq xoʻjalik rivojlanib borgan, shaharsozlik madaniyati yuksalgan. Shu bilan birgalikda ikki xil xoʻjalik sohiblarining bir-birini toʻldiruvchi madaniyati shakllangan va sayqal topgan. Vohaning bepoyon hududlariga keyingi davrlarda kelib oʻrnashgan chorvador aholining ijtimoiy-siyosiy, etno-madaniy hayotga taʼsiri kengaygan.

Xitoy tarixchisi Syuan Szan Ustrushona haqida, "...bu o'lkani tabiati Chochga yaqin, yetishtiriladigan mahsulotlari ham Choch bilan bir xil", – deb ta'kidlaydi. Uning aytishicha, Ustrushonada hukmdorlik qachondan boshlangan bo'lsa, o'sha paytdan buyon mazkur o'lka Chochga bo'ysungan. Ta'kidlash zarurki, Turk xoqonligining chegaralari Amudaryogacha yoyilgan, barcha mahalliy davlat birlashmalari o'zining avtonom huquqlarini saqlagan holda xoqonlikka bo'ysungan. Jumladan, Sug'd shu paytda konfederativ davlat uyushmasi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Syuan Szanning guvohligidan kelib chiqadigan bo'lsak, Ustrushonada ham bu davrda Chochga tobelik orqali Turk xoqonligi qaramog'idagi avtonom hukmdorlik bo'lgan.

Ayitish joizki, ilk o'rta asrlarda Ustrushona ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayotida tub o'zgarishlar ro'y beradi. Chorvachilik va hunarmandchilikning barcha sohalarida yirik mulk egalari, o'rta va mayda mulk egalari jamiyat iqtisodiy hayotida asosiy kuch edi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimoliy-sharqidan doimiy turkiy etnik guruhlarining kirib kelishi, joylarda boshqaruv tizimining turk aslzodalari qo'lga o'tishi ham mintaqada etnogenetik jarayonlarning tezlashuvini kuchaytirgan deyish mumkin. Shunday qilib, Ustrushonada o'rganilayotgan davrda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, voha atrofi chorvador xalqlar bilan gavjumlashgan. Ichki va tashqi savdo, tovar-pul munosabatlarining kengaygan.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda o'rta asrlar Ustrushonasi tarixiy topografiyasini o'rganish yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasida bir qator masalalar o'z yechimini topib bormoqda. Jumladan, joylashuviga ko'ra tekislikdagi Bunjikent, Zomin, Feknon (Fag'non), Xarakana, Burnamad, Shag'ar, Sabat, Xovos, Shavkat, Falgar, Asbanikat kabi rustoqlar, shuningdek, Bunjikat, Zomin, Dizak, Xarakana, Burnamad, Nujkat, Sabat, Xovos kabi shaharlarning geografik o'rni yuzasidan oldingi bildirilgan fikrlar arxeologik tadqiqotlar natijasida qayta ko'rib chiqilmoqda va bildirilayotgan yangi-yangi fikrlar ko'pincha o'z tasdig'ini topmoqda. Biroq, Mink, Biskar, Bangam rustoqlari va Marsmanda shahrining qayerda joylashganligi masalasi bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi. — Toshkent, 1996.
2. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. 25 b.
3. Ataev M. Ustrushona ulamolari. — Toshkent: Fan, 2024.
4. Milliy o'zlikni anglash va moziga nazar. — Toshkent: Navro'z, 2013.
5. Pardayev M. H., Ubaydullayev I. H. Jizzax rivojlangan o'rta asrlarda // O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi. 38-nashr. — Samarqand, 2012.
6. Pardayev M. H., Toshboyev F. E. Ustrushonaning qadimgi davr davlatchilik tarixi. — Toshkent: Vneshinvestprom, 2020.
7. Negmatov N. N. Somoniylar davlati (Movarounnahr va Xuroson IX–X asrlarda). — Dushanbe: Donish, 1977.
8. Pardayev M. H., To'ychiyev B. B. Ustrushona qadimda va ilk o'rta asrlarda. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
9. Negmatov N. N., Xmel'nitskiy S. G. O'rta asr Shahrisoni. — Dushanbe: Donish, 1966.
10. Bolshakov O. G. Markaziy Osiyo shaharlari (VII asr oxiri – XIII asr boshi): avtoreferat dissertatsiya. — Moskva, 1974.
11. Berdimuradov A. E. Jizzax vohasi (Shimoli-g'arbiy Ustrushona)ning ilk o'rta asr arxeologik yodgorliklari (V–X asrlar): avtoreferat dissertatsiya. — Moskva, 1985.
12. Muhammadjonov A. R. O'zbekiston tarixi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
13. Bartold V. V. Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston // Asarlar. 1-jild. — Moskva: Nauka, 1963.
14. Smirnova O. I. 1950-yilda Ustrushonada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar // MIA, 37-son. — Moskva–Leningrad, 1953.
15. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. — Toshkent: Ma'rifat, 2009.